

TASAVVUFNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti "Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi", "Tasavvuf germenevtikasi" mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Tasavvufning jamiyat hayotini yaxshilashdagi tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, ulardan ba'zilari haqida to'xtalib o'tiladi. Tasavvufdan ko'zlangan eng oliy maqsad bu – axloqni sayqallashdir. Ba'zi ulamolar axloqni “irodaning odati” deb ta'riflaganlar. Ya'ni iroda o'ziga bir narsani odat qilib olsa, mana shu odat axloqqa aylangan bo'ladi. Misol uchun, kishining irodasi xayr – ehson qilishga azmu qarorli bo'lib, bu uning odatiga aylansa, mana shu “karamli xulq deyiladi”. Islomda axloqiy tarbiya diniy tarbiyaning ajralmas qismidir, desak, mubolag'a qilmaymiz. Zero, din yaxshi deb hisoblangan va da'vat etilgan narsalar ezgulik, yomon deb hisoblagan va man etgan narsalar yovuzlikdir. Shuningdek, din buyurgan, hayotda va muomalada kasb etishga targ'ib etgan axloq va fazilatlar islom jamiyatida qadriyat, chiroyli xulq va ma'naviy fazilatlar hisoblanadi¹.

Qadimda axloq ilmi ulamolari “odamdagi axloqlar uning yaratilishida qo'shib yaratilgan bo'ladimi yoki kishi axloqni keyin o'rganadimi?” degan savolga javob berishga ixtilof qilishgan.

Ulardan ba'zilari: “Yaxshi va yomon axloq inson yaratilgan chog'ida qo'shib yaratiladi, axloqni keyin kasb qilib bo'lmaydi”, deganlar.

Boshqa bir guruh ulamolar: “Inson tug'ilganida xech qanday fazilat va razilatsiz tug'iladi, unda qanday xislat bo'lsa, tug'ilganidan keyin paydo bo'ladi²”, deganlar.

Muhaqqiq ulamolar tasavvufni botiniy, ya'ni, ichki fiqh deydilar. Bundan fiqh ikki qismga, zohiriy – tashqi va botiniy – ichkiga bo'linishi kelib chiqadi.

Ulamolar shariat ilmlarini zohiriy fiqh deb ataydilar, yoki shunday fiqh ilmi deyish bilan kifoyalanadilar. Binobarin, zohiriy fiqh shar'iy amallarning tashqi tomoniga ahamiyat beradi. Misol uchun tahorat, g'usl, namoz, ro'za, zakot va haj kabi ibodatlarining zohiriy masalalarini oyat va hadislar hamda ijmo va qiyos asosida zohiriy fiqh ilmi–shariat bayon qilib beradi. Xuddi o'sha ibodatlarni ado etish jarayonida qalbni qandoq tutish kerak, xushu va xuzuni qanday ado etish lozimligini oyat va hadislar hamda ijmo va qiyos asosida botiniy fiqh ilmi - tariqat bayon qilib beradi.

Yana ham tushunarli bo'lishi uchun misollar keltiraylik. Tahoratning farzi, sunnati va mustahablari nimalar ekanligini, bu ibodatni ado etish chog'ida turli a'zolari qandoq tutish va yuvilishi lozim bo'lgan a'zolari qancha hamda qandoq

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya 1-juz. – T.: “Hilol-Nashr”, 2019. – B.9.

² O'sha asar.B.10.

yuvish kerakligini zohiriy fiqh ilmi–shariat bayon qilib beradi. Tahoratdan ta’lim berayotgan faqih olim, qo’lni yaxshilab uch marta yuvishi, panjalarni bir-birining orasiga kiritib tahlil qilish lozim. Yuzni yuvganda undoq qilish kerak, oyoqni yuvganda bunday qilish kerak deb tashqi hukmlarni bayon qilib beradi. Tahoratdan ta’lim berayotgan tasavvuf olimi bu ibodatni qilishni boshlaganda va uni ado etish jarayonida qalbni qanday tutishni o’rgatadi. Har bir a’zoni yuvganda qalbdan nimalar o’tishi kerakligini maydalab bayon qiladi.

Namoz necha vaqt farz, vojib yoki sunnat, bomdodning necha rakati farz-u, necha rakati sunnat, namozda turganda ruku yoki sajda qilganda gavnani qandoq tutmoq lozim, Qa’dada o’tirganda gavda, qo’l va oyoqlar qay shaklda bo’lishi kerak kabi ko’plab masalalarni zohiriy fiqh ilmi bayon qilib beradi.

Namozdagi ruhiy holatni, qalbni tutishni, xushu va xuzuni esa botiniy fiqh ilmi bayon qiladi.

Tasavvufning musulmonlar e’tiqodiga ham yaqindan bog’liqligi bor. Ma’lumki, aqoid ilmi e’tiqod masalalarini muolaja qilib, odatda bu boradagi bosh masalalar haqida bahs yuritib, har bir masala bo’yicha oyat va hadislardan dalillar keltiradi. Ammo bu ilm his – tuyg’u, zavqu shavq, qalbiy masalalarga ahamiyat bermaydi. Tasavvuf esa aynan ana shu masalalarga ahamiyat beradi.

Misol uchun aqoid ilmi Alloh taolo eshitish, ko’rish, gapirish, qudrat, hayot, ilm kabi sifatlarga ega ekanligi haqida bahs yuritadi. Ammo banda o’zini Alloh taolo eshitishi yoki ko’rishini butun vujudi bilan qandoq his qilishini tasavvuf ilmi o’rgatadi. Aqoid kitoblarida iymon haqida, kufr va uning turli ko’rinishlari haqida, shuningdek nifoq va uning belgilari haqida bahs yuritiladi.

Tasavvuf kitoblarida esa iymonning amaliy ravishdagi haqiqatga aylantirish yo’llari, kufrdan chetlanish va nifoqdan qutulish yo’llari batafsil bayon qilinadi³.

Tasavvuf Qur’on va Sunnat haqiqatiga yetib, unga amal qilishni yo’lga qo’yishni o’rgatadi.

Albatta, oyat va hadislarni o’qish boshqa uni tushunib boshqa. Ularni uqqandan keyin zohiriy amal qilish boshqa, butun vujudi - jismi, qalbi va ruhi bilan amal qilish boshqa.

Tasavvuf aynan Qur’on va Sunnatda kelgan ma’nolarni tushunish bilan kifoyalaniq qolmay, balki, ularning mohiyatini anglab etish, ularga butun vujud bilan amal qilishni yo’lga qo’yishni o’rgatadi. Xulosa qilib aytiladigan bo’lsa, mujtahid ulamolar Qur’on va Sunnatdagi ma’nolarini bizlarga to’g’ri tushuntirib bergan bo’lsalar, muhaqqiq sufiylarimiz o’sha ma’nolarning ruhiyatini anglatib berganlar⁴.

Tasavvuf qalb, ruh, aql va nafs kabi ma’nolarni alohida e’tibor bilan tushuntiradi va ularning har biriga musulmon inson qanday munosabatda bo’lishi zarurligini bayon qilib, o’sha bayonni tadbiiq qilinishini ham yo’lga qo’yadi.

³ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – B.7.

⁴ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996. – B.18.

Tasavvufning nomlaridan biri “ruhiy tarbiya” bo’lgani ham shundan dalolatdir. Tasavvufda qalb, ruh, aql va nafs deb ataladigan ma’nolarni aniq bilib olish katta ahamiyat kasb etadi. Bu narsalarning har birining haqiqatini anglab yetish va ularni bir-biridan ajratib olish ham oson ish emas.

Ushbu to’rt narsa haqida qisqacha ma’lumot bilib olishimiz zaruriy bir narsadir.

1. Qalb.

Qalb lafzi ikki xil ma’noda ishlatiladi.

Birinchisi - insonning chap ko’krigida joylashgan, konus shaklidagi maxsus jism nomi. Uni ilmiy tilda yurak deyiladi. Tasavvufda qalb deyilganda o’sha a’zo nazarda tutilmaydi.

Ikkinchisi - Robboniy, ruhoniylar va latif narsa bo’lib, uning avvalgi qalbgaga bog’liqligi mavjud. Ularning orasidagi aloqa xuddi sifatning sifatlangan narsa bilan bo’lgan aloqasiga o’xshaydi. Ana o’sha latif narsa insonning haqiqatidir. Idrok, bilim va ma’rifat o’shandandir. Xitob, itob, iqob va talab ham o’shangadir.

Tasavvufda qalb deyilganda mazkur latif narsa anglanadi. U haqida so’z borganida uning sifati va ahvoli haqidagina bo’ladi, haqiqati haqida so’z yuritilmaydi⁵.

2. Ruh.

Bu lafz ham xuddi qalb lafzi kabi ikki xil ma’noni ifoda etadi.

Birinchisi, jismoniy qalb ichidagi latif jism bo’lib, asablar orqali badanning barcha taraflariga tarqaladi. Tabiblar ruh va unga bog’liq narsalar haqida so’z yuritganlarida aynan ana o’sha ruh haqida gapirgan bo’ladilar.

Mazkur ruh bilan tasavvufning aloqasi yo’q. Tasavvufda muolaja qilinadigan ruh biluvchi va idrok qiluvchi latif narsadir. Uning haqiqatini Allohdan o’zga bilmaydir.

Alloh taoloning o’zi “Isro” surasida:

“Va sendan ruh haqida so’rarlar. Sen: “Ruh Robbimning ishidir. Sizga juda oz ilm berilgandir”, deb ayt”, degan.

Isro surasi, 85-oyat⁶.

Ushbu oyati karimada ruh haqidagi savolga Alloh taolo bergan javob zikr qilinmoqda. Bu javob: “Ruh Robbimning ishidir”, deyishdir.

Ruh, uning mohiyati va unga tegishli boshqa narsalar Allohning ishi, bandaning ishi emas. Banda qanchalik maqtanmasin bu borada ilmi ozdir. “Sizga juda oz ilm berilgandir”.

Insonning hamma narsasi cheklangandir. Jumladan, aqli, idroki ham maxduddir. U aqli, idroki doirasidagi ishlar ila shug’ullanib, undan tashqaridagi narsalar xususida behuda bosh qotirmasligi kerak. Bular qatoriga ruh masalasi

⁵ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – B.27.

⁶ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimai va tafsiri. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2018. – B.290.

ham kiradi. Hozirgacha insonning ruh haqida biror narsa bilish uchun qilgan barcha harakatlari behuda ketdi. Ruh haqida hech narsa bila olmadi.

Inson ruh haqida bilgan birdan-bir narsa Alloh yuborgan vahiy, xolos⁷.

3. Nafs.

Bu lafz ham bir necha ma'nolarda ishlatiladi. Tasavvufda nafs lafzi ikki ma'noda ishlatiladi.

Birinchisi, insondagi g'azab va shahvat quvvatini jamlovchi ma'nodir. Albatta, ahli tasavvuf nafs deganda ko'proq yomon sifatlarni o'zida jamlovchi narsani ko'zda tutadilar. Shuning uchun ham ularning istilohida, nafsga qarshi mujohada qilish, uni sindirish kabilar tez-tez uchrab turadi.

Bunday nafsni o'ziga xos ismi bo'lib uni "an-Nafs al-Ammora al-Bissu'i" "Yomonlikka amr qiluvchi nafs" deb ataladi.

Alloh taolo "Yusuf" surasida:

"Va o'z nafsinni oqlamayman. Albatta, nafs, agar Robbim rahm qilmasa, yomonlikka undovchidir. Albatta, Robbim mag'firatli va rahmli zotdir", deb ta'kidlangan.

Yusuf surasi, 53-oyat⁸.

Ikkinchisi, avval zikr qilingan insondagi latif jism bo'lib, u insonning joni va o'zini anglatadi. U holatga qarab turli vasflarga ega bo'ladi.

Gohida "Fajr" surasida zikr qilingan vasfda bo'lishi mumkin. Alloh taolo o'sha surada yana marhamat qilib:

"Ey, xotirjam nafs! Robbingga sen undan, u sendan rozi bo'lgan holda qayt! Bas, bandalarim ichiga kirgin! Va jannatimga kirgin!" degan.

(Fajr surasi, 27-30-oyatlar).

Bunday nafs shahvatlar ila kurashda g'olib bo'lib, sokinlik kasb qilgan nafsdur. U mut'mainna – xotirjam nafs deb ataladi.

Gohida "Qiyomat" surasida zikr qilingan vasfda bo'lishi mumkin. O'sha surada Alloh taolo marhamat qilib:

"Va malomatchi nafs bilan qasam", degan.

Qiyomat surasi 2-oyat⁹.

"Malomatchi nafsdan" murod taqvodor mo'min kishining nafsidir. Chunki u o'z egasini doimo malomat qilib (tergab) turadi. Gunoh ish qilsa, "Nima uchun gunoh qilding? Allohdan qo'rqmaysanmi? Oxiratda nima javob berasan?" deb malomat qiladi. Savob ish qilsa, "Bu ozku, ko'proq qilsang bo'lmaydimi? qancha ko'p savob ish qilsang, o'zingga foyda-ku", deb malomat qiladi. Tasavvuf maktabining mashhur namoyandasi, islom olamida katta xurmatga ega bo'lgan

⁷ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – B.30.

⁸ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimai va tafsiri. – T.: "Toshkent islom universiteti", 2018. – B.242.

⁹ O'sha asar. B.578.

olim Imom Hasan Basriy: “Yaxshi odam doimo o‘z nafsini malomat qilib turadi, fojir odam nafsini itob qilmay yuraveradi”, deganlar¹⁰.

4. Aql.

Bu lafz ham turli ma‘nolarda ishlatiladigan lafzlardandir. Tasavvufda o‘sha ma‘nolardan ikkitasi ishlatiladi.

Birinchisi, narsalarning haqiqatini idrok qilish bo‘lib, ilmning suratidan iborat bo‘ladi.

Ikkinchisi, ilmlarni idrok etuvchi bilimdir¹¹.

Tasavvuf tahziybi axloqni - axloqni sayqallashni yo‘lga qo‘yadi.

Bunda mo‘min-musulmon bandaning axloqi qur‘on karim va hadisi sharif ta‘limotlari asosida qandoq bo‘lishi kerakligi o‘rgatiladi va uni tadbiiq qilish yo‘lga qo‘yiladi. Zotan bu amal har bir mo‘min-musulmon uchun farzdir. O‘sha farz amalni yo‘lga qo‘yish aynan tasavvuf orqali joriy etiladi.

Tasavvuf tazkiyatun nafsni - nafsni pokizalashni ham yo‘lga qo‘yadi.

Bu ham har bir mo‘min-musulmon uchun farz amal bo‘lib uning haqiqati va tatbiqoti tasavvuf orqali bo‘ladi.

Tasavvuf tavba, istig‘for, duo, zuhd, taqvo, vara’ va shunga o‘xshash ma‘nolarning haqiqatini anglab yetishga yordam beradi va ularni hayotga qandoq tadbiiq qilish bo‘yicha darslar va ko‘rgazmali tajribalar olib boradi.

Tasavvuf mo‘min-musulmonlarga nafl ibodatlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ham darslar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO‘YXATI:

1. Abdulhakim Shar‘iy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. –T.: Adolat, 2001. –191 b.;
2. Hamidjon Hamidov. Tasavvuf Allomalari. – T.: Sharq, 2009. –208 b.;
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – T.: Movarounnah, 2009. – 430 b.
4. Tuzuvchilar: I.Usmonov, Z.Faxriddinov, X.Yuldashxodjayev, G.Saidova, L.Asrorova. Tasavvufga kirish. (Darslik) – T.: Yosh kuch, 2019. –288 b.;
5. Mamatov Mamadjon Ahmadjonovich. Tasavvuf ta‘limotining tarixiy-falsafiy mohiyati. – T.: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. –200 b.
6. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy. Erkak kishi kamolotida ayolning o‘rni. (Tar: Allaqulov.A) – T.: Hilol nashr, 2020. –80 b.;
7. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy. Iffat va hayo. (Tar: Odinayev.N) – T.: Hilol nashr, 2023. –96 b.;
8. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy. Solih farzand qanday tarbiya qilinadi. (Tar: Odinayev.N) – T.: Hilol nashr, 2023. –96 b.;

¹⁰ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – B.32.

¹¹ Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – B.34.

9. Shayx Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy. Talabalik davrini qanday o'tkazmoq kerak. (Tar: Odinayev.N) – T.: Hilol nashr, 2022. –96 b.